

BIOLOGIYA FANIDAN ILG'OR INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH*Navro'zova Feruza Karamovna**Uchquduq tuman kasb hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya fanidan ilg'or innovatsiyalardan foydalanish, biologiya fanining samaradorligini oshirishda foydalaniladigan interfaol metodlar, biologiya fanini o'qitishda foydalaniladigan innovatsion usullar, zamonaviy texnologiyalar va ularning ahamiyati haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ilg'or innovatsiyalar, biologiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion usullar.

Kirish:

Biologiya fanlarini nazariy bilimlarga asoslangan ravishda amaliyot yordamida kengroq o'rganish muhimdir. Hamma bo'limlar bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazishning muvaffaqiyati uning mohiyatini va tashkil qilinishi ko'p darajada o'qituvchiga bog'liq. Ta'lim sohasida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim maqsadi bugungi ilmiy texnika davrida ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol ma'naviy yetuk har taraflama bilimdon komil insonni tarbiyalashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Bugungi kunga kelib, ta'limning bunday noan'anaviy usullarni qo'llash dars jarayonida kompyuter va texnik vositalaridan katta samara berayotgani va bu ta'lim - tarbiya usullarining bosh mezoni sifatida tan olingani hech kimga sir emas. Ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llanilishi tarbiyachilarning mavzular yuzasidan tayyorgarlik ko'rishlarida erkinlik va tezkorlikga erishishlarga asos bo'lishi bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarga mavzularning tez va oson yetib borishi, shuningdek qiziqishlarining ortishga sabab bo'ladi. Chunki darslarning axborot texnologiyalari va qo'shimcha internet ma'lumotlaridan qo'shimcha manbalaridan foydalanilgan holda olib borilishi bolalarning hozirgi tezkor axborot davrida bir xildagi va zerikarli mashg'ulotlardan farqli ravishda mavzuni aniq va maqsadli tarzda o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi.

Internetdan olingan qo'shimcha manbalarni biologiya darslarida foydalansak, darslarimiz yanada sifatli bo'ladi. Masalan, quyidagi internet ma'lumotida shaffof jonotlar to'g'risida so'z boradi. Dunyo ilm- fan mo'jizalarga boy, bu borada biologiya fani yetakchilardandir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida mashg'ulot maqsadini bilishi, asboblarni tanlay olishi, yig'ishi va ulardan foydalanishi tajribani amalga oshirish sharoiti va natijalarini yozishi va xulosalay olishi zarurdir.

Natijalar:

Pedagogik texnologiya bu har bir pedagog o'z ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy malakasidan kelib chiqqan holda dars mohiyatini yangicha usulda olib borishi tushuniladi. Bunda o'qituvchi o'quvchiga mavzu tushunarli bo'lishi uchun dars mobaynida turli interfaol metodlardan foydalanib, har xil o'yinlar o'tkazish yo'li bilan olib boradi. An'anaviy dars o'tish usullariga nisbatan noan'anaviy dars o'tish metodlari ancha samarali ekanligi aniq isbotlangan tushunchadir.

Sababi yangicha pedagogik texnologiyalar yordamida dars o'tish yuqorida aytganimizdek o'quvchi yoshlarni erkin fikrlashga, o'z g'oya va tushunchalarini aniq bir so'z bilan ifodalashga, barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil qilish va boshqarishni taqozo qiladi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal qilishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi. Interfaol usullar vositasida dars o'tishda o'qitishning ijrochisi o'quvchi sanaladi. O'qituvchi bunda ta'lim olishning tashkilotchisi, o'quvchining yordamchisi sifatida qatnashadi.

Muhokama:

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish maqsadida darslarda o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Metodlar vositasida darslarni tashkil qilish oquvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini intensivlashtiruvchi va rivojlantiruvchi usullardan biridir. Metodlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish qobiliyatini, o'rtoqlari bilan muloqotga kirisha olish xususiyatlarini oshiradi, tez javob topish malakasini shakllantiradi.

Metodlarni qo'llash mobaynida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ijobiy his hayajon tuyg'usi ularni charchashdan asraydi. Metodli darslari o'qitishning faol shakllaridan bo'lib bunday darslar o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini hamda o'quvchilarning faol bilish jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlarini nazarda tutadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, biologiya tabiiy fanlarning bir tarmog'i bo'lib, insoniyatni borliq, jonli tabiat bilan tanishtiradi. O'quvchilarni tabiatni sevishi, tabiiy borliqni tushunib yetishi, tabiatdan o'rinli foydalanib uni e'zozlashga tabiiy boyliklarni muhofaza qilishga o'rgatadigan fanlardan biridir. Biologiya darslarida virtual va vizual laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda tayanch kompensatsiyalarni takomillashtirishda asosiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. “Maktabda biologiya”- ma’naviy-ma’rifiy ta’limiy jurnal 2018.
2. Tolipova J.O, G‘ofurov A.T Biologiya o‘qitish metodikasi T-2004.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2004.
4. Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvga asoslangan ta’lim mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari Samarkand-2018.
5. J. O‘. Tolipova, M.T.Umaraliyeva. “Botanika darslari”. “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”. Toshkent 2011.